

SHAXS RIVOJLANISHIDA MEDIA TA'LIMNING AHAMIYATI

Mirqosimova Marg'uba*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori, p.f.d.***Nuriddinxo'jayeva Malikaxon***mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Maqolada bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini media ta'lim texnologiyalar asosida rivojlantirish usullari yoritilgan. Muallifiar media ta'lim tushunchasiga mualliflik ta'rifini berib, media ta'lim texnologiyalari asosida ularda "aqliy", "hissiy", "kreativ", "ijodiy", "mazmundor" va "mantiqiy" fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini yoritganlar.

Kalit so'zlar: media ta'lim, intellektual va ijodiy rivojlanish, "aqliy", "hissiy", "kreativ", "ijodiy", "mazmundor" va "mantiqiy" fikrlash, media ta'lim texnologiyalari, axborot madaniyati.

ВАЖНОСТЬ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ

Миркасимова Маргуба*доктор педагогических наук, профессор**Международной академии исламоведения Узбекистана***Нуриддинходжаева Маликахон***самостоятельный соискатель*

Аннотация: В статье освещаются методы развития интеллектуальных и творческих способностей детей на основе медиаобразовательных технологий. Авторы дают авторское определение понятию "медиаобразование" и освещают методы развития у детей способностей к "интеллектуальному", "эмоциональному", "креативному", "творческому", "смысловому" и "логическому" мышлению на основе медиаобразовательных технологий.

Ключевые слова: медиаобразование, интеллектуальное и творческое развитие, "умственное", "эмоциональное", "креативное", "творческое", "содержательное" и "логическое" мышление, технологии медиаобразования, информационная культура.

THE SIGNIFICANCE OF MEDIA EDUCATION IN PERSONAL
DEVELOPMENT**Mirqosimova Marguba***Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, International Islamic Academy of Uzbekistan***Nuriddinxodjayeva Malikaxon***Independent Researcher*

Abstract: *This article examines the role of media education technologies in fostering the intellectual and creative development of children. The authors put forward an original definition of the concept of media education and elaborate on methods aimed at cultivating various dimensions of thinking, including intellectual, emotional, creative, imaginative, meaningful, and logical aspects. Particular emphasis is placed on how media education can contribute to shaping an individual's information culture while enhancing their cognitive and creative potential.*

Keywords: *media education, intellectual and creative development, intellectual thinking, emotional thinking, creative thinking, imaginative thinking, meaningful thinking, logical thinking, media education technologies, information culture.*

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bolalar, o'quvchilar, talabalarning ijodiy kreativ fikrlashi, o'zining intellektual salohiyatini o'quv va kasbiy faoliyatiga safarbar qilish kompetentligini oshirish, bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalar asosida rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. YUNESKO (1978) tomonidan o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ommaviy mediata'lim dasturi – "General Curricular Model for Mass Media Education"⁷ ishlab chiqilganligi ham bejiz emas.

Jahonda axborot asrida, ijodiy ongning shakllanishining pedagogik xususiyatlari, shakllari, ijodiy muhitda shaxsning ijtimoiylashuvi, shaxsning layoqati, imkoniyati, iqtidori, iste'dodi, kreativ tafakkuri bilan intellektual va ijodiy qobiliyatlari o'rtasidagi bog'liqlik muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalalarni intellektual va ijodiy qobiliyatlarini mediata'lim texnologiyalar asosida tizimli rivojlantirish kabi pedagogik muammo dolzarb sanaladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan F.R.Qodirova, A.A.Abduraximova, N.Begmatova, G.A.Berdaliev, G.A.Berdaliev,

⁷ «Paris Agenda or 12 Recommendations for Media Education. Media Education – Advances, Obstacles, and New Trends Since Crunwald Paris, UNESCO, 21-22.06.2007. Программы YUNESKO «Информация для всех» // <http://www.ifap.ru>

G.E.Djanpeisova, X.Najmidinova, I.I.To'ychieva, N.I.Rejametova, D.T.Sabirova, M.Norbosheva, T.L.Xurvaliyevlar aqliy va ijodiy rivojlantirishga oid natijaviy tadqiqotlar olib borilgan. Mediata'lim mazmuni, mediavaxfsizlik, mediamahsulotlarni samarali o'rganish hamda pedagog kadrlarning mediakompetentligini rivojlantirish muammosi doir N.S.Mo'minova, X.Sh.Qodirov, S.Beknazarova, S.S.Babadjanovlar, Sh.Paxruddinov, Y.Mamatova, S.Sulaymonova, N.Rustamovlar samarali ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan A.V.Fedorov, N.Zmanovskaya, N.P.Rijix, A.Y.Deykina, I.Donina va A.Gopkina, O.Davidova, L.Ivanova, V.Protopopova, O.Surova, Y.Ushakovlar tomonidan ilm-fan olamida "media", mediata'lim mazmuni va mediamahsulotlar g'oyalarini singdirish, bolalarda mediasavodxonlikni shakllantirish, pedagoglarining mediakompetentligini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

Xorijiy davlatlar olimlaridan E.Maklyuen, X.Mishel, K.Fridrix, Jak Gonnet asarlarida "Media" fenomeni bo'yicha aynan anglo-sakson maktabida har tomonlama keng tadqiqotlarni amalga oshirgan. Mediamuhitning shaxsga ta'siri masalalari J.Marsh, P.Xennon, L.Lyuis va L.Richilar, E. Xevlok, I.Garold, U.Karlson kabi olimlarning ishlarida ham aks etgan. G.Tulojeski, R.Kyubey, J.Potter, V.Veber o'z asarlarida "mediata'lim" "mediakompetentlik", "mediasavodxonlik" tushunchalari hamda media mahsulotlar asosida ta'limni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

Asosiy muammo tahlili. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishda ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda mediata'lim texnologiyalari asosida ularda "aqliy", "hissiy", "kreativ", "ijodiy", "mazmundor" va "mantiqiy" fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatining natijasi didaktik jarayonning maqsadi, o'quv mashg'uloti materialining mazmuni, o'qitish, o'rgatish shakl, metod va vositalarining to'g'ri va oqilona belgilanganligi hamda tanlanganligiga bog'liq bo'lib, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun faol ta'sir etuvchi omillarning mavjud bo'lishi talab etiladi Ayni vaqtda, fanlarning o'qitishga oid muammolar tobora faollashib bormoqda, bu maktab o'quvchilarining tayyorgarligini pasayishi, fanni mustaqil o'rganish bo'yicha o'quv-ma'lumotlarning etishmasligi bilan bog'liq. Olimlarning izlanishlariga ko'ra, bu muammolarning yechimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tizimli takomillashtirish lozimliginitaqazo etadi. Media savodxonligini ham maktabgacha ta'limdan umumiy o'rta ta'limga tomon tizimli olib boorish lozim.

Media ta'limning rivojlanishi axborotlarning mazmuni, ularni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish usullari va yo'llarini ham nazorat qilishni, puxta

o'zlashtirishni, amalda qo'llash malakasini shakllantirishni taqazo etadi. Axborotning bunday aralash-quralashligi ta'sirida tarbiyalanuvchi va o'quvchilarning mustaqil ravishda tafakkur qilish muammosi yuzaga kelmoqda. Tarbiyalanuvchilar ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlash, intellektual va ijodiy fikrlash bilan birgalikda tanqidiy fikrlash, axborot bilan muomala qilish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi tursa, maktab ta'limida axborotlar bilan ishlashda bilim, ko'nikma hamda malaka va axborot madaniyatini shakllantirish talab etiladi. Bu esa, media ta'lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediakompetensiya hamda mediamadaniyatni rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bir qancha olimlarning qarashlari hamda ilmiy manbalarning tahliliga ko'ra "maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mediasavodxonligi deganda biz bolalarda medianing turli shakllari, janrlari va turlarida axborotlarni tahlil qilish, baholash va shunday axborotlarni yaratish imkonini beradigan ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir,"-ta'rifini taklif qilamiz. Uning asosini bolaning nima ko'rayotgani, o'qiyotgani, eshitayotgani haqida savol berishga rag'batlantiruvchi model tashkil etadi. Mediasavodxonlik orqali maktabgacha yoshdagi bolalar mediamatnlarni tahlil qilib, rostni yolg'ondan, muhimni nomuhimdan, tor yondoshuvni keng yondoshuvdan ajratish qobiliyatini qo'lga kiritadi,"- deb hisoblaymiz

Media ta'lim – global axborotlashuv sharoitida shaxsni media tomonidan tarqatilayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga doir nazariy bilimlar majmui bilan qurollantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim turlaridan biri.

Uning asosiy maqsadi shaxsga media tomonidan tarqatilayotgan axborotlarni tanlash, saralash, tahlil qilish va tanqidiy baholashga imkon beruvchi mediasavodxonlikni shakllantirish asosida OAV tomonidan tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan ehtiyotkorlik, oqillik, ijodiy yondashish, shuningdek, axborotlarni tanqidiy qabul qilish ko'nikma-malakalarini shakllantirishdan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz maktabgacha ta'lim tizimida "Mediata'lim –oddiy yo'nalishlardagi media axborot tilini o'rganishga ko'maklashadigan, bolalarning intellektual, ijodiy salohiyatining o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shadigan, mediamatnlarni qabul qilish, o'rganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini ifodalaydi"- deb ta'rif berish mumkinki, bu jarayonlar maktabgacha ta'limdan boshlab tizimli tashkil etilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida esa garchi medianing jamiyat va shaxs hayotidagi o'rni, ahamiyati tobora ortib borayotganligiga qaramay, mediata'limni o'qitish

jarayonida qo'llash borasida hanuzgacha jiddiy qadam tashlanmayapgani muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Olimlar maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning kompyuterlar, planshetlar, telefonlar bilan haddan tashqari sevimli mashg'ulotlari aqliy va jismoniy rivojlanishga ta'sir qilishi mumkin, deb hisoblashadi. Ushbu masalaning yechimlaridan biri bolalarni texnikadan to'liq himoya qilish bo'lishi mumkin, ammo bu ilg'or foydalanuvchilarni kutayotgan ilg'or media texnologiyalarining zamonaviy dunyosida deyarli mumkin emas. Deyarli yoshligidan boshlab, bolalar ommaviy axborot vositalarini o'zlashtiradilar va bu makondagi bola butunlay ishonch hosil qiladi. Buning afzalliklari bor: ta'lim darajasini oshirish, turli odamlar bilan muloqot qilish va kamchiliklar: hayotiy tajribaning yetishmasligi virtual dunyosining afzalligi bolaning psixikasi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi va nafaqat yomonlashuv, tashvish, asabiylashish, onlayn tahdidlarning qurboni bo'lish xavfi ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga, balki qaram xatti-harakatlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyot va ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida media ta'limning yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim degan xulosaga keldik:

1. Oila, ta'lim muassasalari bilan media o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish.
2. Ota-onalarning mediasavodxonligini oshirish.
3. Tarbiyachi-pedagoglarni mediata'limni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
4. Malaka oshirish tizimi vositasida ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning mediamadaniyatini rivojlantirish.
5. Tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalarda axborot xuruji, tahdid va shu turdagi xavfsizlikka qarshi media savodxonlikka oid ma'naviy-madaniy immunitetini shakllantirish;
6. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida media muhitda samarali harakatlanish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlovchi o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.
7. Media vositalarning bola shaxsi kamolotini ta'minlashdagi ahamiyatini oshirish.
8. Bolalarni mediatexnologiyalardan foydalanishda qaramlik hissi bilan emas, balki, o'qib- o'rganishni maqsad qilishi;
9. Media savodxonlik va axborot madaniyati sohasida yetakchi mamalakatlarining ilg'or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Bolalar intellektual va ijodiy kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida media - interfaol metodlar muhim sanaladi. Bunda ta'lim oluvchining

bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv jarayoni va mashg'ulotlarni o'zaro hamkorlik asosida tashkil etiladi. Bunda o'zaro harakat ta'lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o'rnatish kabi tamoyillarga tayanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti, ta'lim faoliyatlari jarayonida erkin ijodiy muhitning yaratilishi, tarbiyachilar va bolalarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi.

Bola ta'lim-tarbiya jarayonida o'z bilim va imkoniyatlari darajasini bilib yurishi, axborotlarni qabul qilishi, saralashi, qayta ishlashi, ulardan keladigan ijobiy natija va oqibatlarini diqqat markazida tahlil qila olishi, boshqalarning fikr-g'oyalarini idrok qilishi, o'z barqaror nuqtai nazariga ega bo'lishi, o'z g'oyalarini boshqa g'oyalarga taqqoslashni o'rganishga majburligi hozirgi elektron asr - XXI asr talabiga aylandi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda mediata'lim texnologiyalari muhim hisoblanadi. U radio, televideniye, internet va boshqa axborot-kommunikatsion vositalari asosida o'qitishga asoslanadi. Bunga ko'rgazmalilik, tasviriylilik, faktik yangilik, tezkorlik va uzluksiz aloqadorlik xosdir.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning mediata'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axborotni o'zlashtirish, egallash asosida shaxsning ichki dunyosini rivojlantirishdir. Tavsiya etilgan mediasavodxonlik faoliyatini keyingi faoliyat jarayonida quyidagi mavzular bilan shakllantirish maqsadga muvofiqdir:

- Media va axborot;
- Televizor ko'rish qoidalari;
- Telefon xaqida tushuncha berish;
- Internet va insonlar;
- Media olamida axborotning xilma xilligi intellektual fikrlash;
- Axborotlarni saralash mantiqiy, ijodiy, tanqidiy fikrlash;
- Yolg'onni rostdan ajratish; va h.z.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda "Mediamahsulotdan ogoh bo'ling" tamoyil asosida tarbiyachi-pedagoglarga turli media mahsulotlardan to'g'ri foydalanishni targ'ib qilib borish lozim.

Tavsiyalar: "Media bolajon" nomli elektron platforma yaratish, mavjud video, audio mahsulotlar, elektron adabiyotlar, bolalarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini va mediasavodxonligini rivojlantirish maqsadida foydalanish

mumkin; maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi omillarga moslashtirgan holda quyidagicha ifodalash mumkin:

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari tomonidan bolalarga turli mavzulardagi media mahsulotlarni taqdim etish uchun albatta auditoriyada emas balki kichik guruxlarda o'zining oddiy kompyuter, noutbuk va monobloklar orqali elektron resurslarni mobil vositalar orqali istalgan joyda olib yurish va foydalanish mumkinligi;

Boshlang'ich sinflarda ham bu jarayonni tizimli olib boorish orqali o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun Bluetooth, PDA kabi simsiz aloqa vositalari yordamida media xabarlarini yuborish, nusxalash, bola bilan o'zaro interfaol muloqot o'rnatish imkoniyatini yaratish;

Maktab ta'limida o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va ularning qiziqishlarini oshirish maqsadida mobil telefonlar, gadgetlar, o'yin qurilmalari va boshqalardan foydalanish ;

maktabgacha katta yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mobil qurilma orqali o'ziga kerakli bilimlarni tanlash, istalgan vaqtda o'zlashtirishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishning moslashuvchanligini ta'minlash tavsiya qilinadi.

Xulosa. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning yoshiga nisbatan bilish faoliyatiga ijobiy ta'sir qiluvchi "intellektual intilishlari" va "ijodiy qobiliyatlari"ni rivojlantirishga yo'naltirilgan musobaqalar tashkil qilish ;

boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning intellektual-bilish malakasi, elementar matematik tasavvurlari, tadqiqiy-bilishning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini mediata'lim texnologiyalari asosida takomillashtirilish samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Education of preschool children in the family in a media educational Environment". Xalqaro GERMANIYA (BERLIN) konferensiyasi. "International scientific-online conference MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH" 2021y dekabr. 24-29b.<https://interonconf.org>
2. "Zamonaviy oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni mediata'lim muxitiga tayyorlash". Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi "Mahalla va Oila" ilmiy tadqiqot instituti. 2021y 20 sentyabr 60-63b.
3. "Masofaviy mediata'lim texnologiyalari asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish". Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2021y, 28 oktyabr 121-126 b.